

## **ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TABIAT TASVIRI**

Saidova Dilsora Sulton qizi

BuxDUPI magistranti

### **Annotatsiya**

ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlari va g'azallarida tabiat haqidagi va tabiat tasviri haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'z:** ma'shuqa, oy, falak charxi, zangnori osmon, qoraqo'ng'iz, falak.

**Аннотация:** в данной статье представлена информация о природе и образе природы в произведениях и стихах Алишера Навою.

**Ключевые слова:** возлюбленная, луна, небосвод, синее небо, черный жук, небо.

"Islom madaniyatining oltin asr" deb e'tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g'ururi hisoblanadi. O'n beshinchи asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham sultanat, yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxon, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyildi. Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahoning eng ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgani barchamizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

O'zbek mumtoz she'riyatida borliqdagi narsa – hodisalarni, ma'shuqa va uning uzvlarini samoviy timsollardan Quyosh va Oyga tashbeh qilish, tashxis, tazod san'atlarini qo'llash bilan tashbeh qilinganlar vositasida ta'sirchanlikni oshirish, mazkur ikki timsolni istiora asosida ma'shuqa ma'nosida qo'llash ko'p uchraydi. Alisher Navoiygacha turkiy tilda ijod qilgan Xorazmiy, Lutfiy va Atoiy kabi so'z san'atkolarining ijodida bu holat yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda ko'pincha Oy timsolining muqaddasligi va shunga o'xshash muhim fazilatlari asos bo'lib

xizmat qiladi. Alisher Navoiy ham o‘zining ilk devoni “Badoye’ ul-bidoya” tarkibidagi she’rlarda Quyosh timsoli singari Oy timsoliga ko‘p murojaat qilganini ko‘rish mumkin. Hatto, mazkur devon debochasida ham ayni holatni ko‘rish mumkin. Mutafakkir shoир ulug‘ ijodkorlardan bo‘lgan Amir Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz SHeroziy, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Sakkokiy, Mavlono Lutfiylarni she’riyat fanining payg‘ambari darajasida e’tirof qiladi:

Oyni yorug‘, charxni demak baland,  
Tab‘i baland elga emas dilpisand.

deya “oy” va “charx” kabi timsollaridan foydalanadi. Oy, quyosh timsollari vositasida ifodalangan ma’nolar Navoiy ijodida turli mavzu, g‘oya va tasvir holatlarini ifodalash uchun xizmat qilgan. Jumladan, Oy timsoli o‘z ma’nosida, ya’ni osmoniy jism sifatida tilga olingan baytlar ham mavjud:

Mash’ale bo‘lmish malak ilgida ravzang boshig‘a  
Oy charog‘i har kecha bu nilgun toram aroi [37.33].

Zangori osmon aro har kecha oy charog‘i jannat bog‘ining boshida malak qo‘lida uning mash’alasi bo‘lyapti, ya’ni malak shu darajada tengsizki, uning makoni jannat bog‘i, to‘g‘rirog‘i, jannat bog‘ining eng boshi. Go‘zallikda tengsiz hisoblangan oy esa har kecha zangori osmon aro malak qo‘lida uning mash’alasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu o‘rinda mubolag‘a yoki litota san’ati fikr jozibadorligiga xizmat qilgan. G‘azal mulkining sultoni malak qay darajada hurliqo ekanligini tasvirlash uchun koinot jismlaridan biri hisoblangan hamda odamlar nazarida go‘zallikda tengsiz bo‘lgan oy timsolidan mohirona foydalangan. Alisher Navoiy g‘azaliyotida keng qo‘llanuvchi quyosh timsoli bilan birgalikda payg‘ambarlar timsollari yonma – yon keltirilgan. Aytilganlar nuqtai nazaridan Iso alayhissalom bilan bog‘liq baytlar ham shoир ijodida salmoqli o‘rin egallaydi.

Ne g‘aming yuz zarra sargardonlig‘idin, ey quyosh,  
Senki raf‘atdin Masiho kibi hamdam topqasen [37.415].

Baytda Quyosh va Iso Masihni birlashtiradigan nuqtaga “raf‘at” so‘zi yordamida ishora qilinadi. Raf‘at – yuksaklik, baland martabalik demakdir. Quyosh ma’shuqa timsoli, Zarra esa oshiqdir. Ulug‘ shoир Quyoshni ma’shuqa

ma’nosida qo‘llagani bois uning yuksak maqomini “Senki raf” atdin Masiho kibi hamdam topqasen”, - tarzida aniqlashtiradi. Baytda qo‘llangan Masiho Quyosh vasliga vosil bo‘lgan oshiq timsoli. SHu bois sevikeli yor zarralar – boshqa oshiq diydortalablar sargardonligi, riyozat chekishidan g‘am emaslikka, ularga beparvo bo‘lishga chaqiriladi. Bu bilan shoir iztiroblarga o‘rtanayotgan oshiqlar holidan ularning nazarida ma’shuqa xabarsiz yoki bunga voqif bo‘lsada, oshiqlarning o‘y – xayolicha ko‘p mashaqqat chekib unga intilishlariga ma’shuqa bee’tibor ekanligini badiiylashtiradi. Oshiqlar ko‘nglida kechayotgan bu o‘y – xayollarning boisi ham aniq. Quyosh yanglig‘ nurli orazga sohib ma’shuqa samoning to‘rtinchi qatida Iso Masih bilan birga maqom tutgan. Ko‘rinadiki, bunday baytlarda ulug‘ shoir mavzu tabiatidan kelib chiqib, talmeh san’atiga murojaat etadi. Alisher Navoiy g‘azallari bilan birgalikda “Badoye’ ul – bidoya”da qit’alarga ham keng o‘rin ajratganki, bu janrda ham Quyosh timsolidan foydalanganligiga guvoh bo‘lamiz:

Yuziga asli yomonning ko‘p ochma gulshani xalq,  
Siyah gilemga albatta mehr aylama fosh  
Ki qilmadi gul isi birida toza ruh jual,  
Quyosh charog‘iga parvona bo‘lmadi xuffosh [37.631]

Qit’aning umumiy mantig‘i ilondan ilon paydo bo‘ladi, chayondan chayon degan iboraning badiiy sharhidan iboratdir. Shoir o‘xshatish orqali o‘z g‘oyasini yorqinroq aks ettirishga erishadi. Jual – qoraqo‘ng‘iz (tezakqo‘ng‘iz). Uning qismati gul isinimas, tezak bo‘yini hidlash. Shuning uchun unga gul isi birla ruhni tozalash nasib etmagan. Xuffosh – ko‘rshapalak-chi? Uning hayoti zulmot bag‘rida kechadi. Ko‘rshapalak “Quyosh charog‘iga” parvonalikdan mahrumdir. Xullas, Alisher Navoiy o‘z qit’alarida Quyosh timsoliga murojaat etar ekan, uni ramziy ma’noda emas, balki o‘z ma’nosida, ya’ni osmoniy jismlardan biri sifatida e’tirof etgan. Alisher Navoiy g‘azallari bilan birga, ruboiylarida ham samoviy jismlar (Oy, quyosh, yulduz)ga murojaat etib ma’shuqa jamolining betakrorligini ifodalaydi. Shoir tabiat hodisalaridan biri bo‘lgan quyoshning tutilishi bilan bog‘liq holatdan ham o‘z maqsadi yo‘lida mahorat bilan foydlangan:

Tutilmish erdi g‘azabdin ulusni qildi asir  
Quyosh utilsa, bale, fitnadir anga ta’sir [37.198].

Alisher Navoiyning tabiat tasviridan mohirona foydalanishi “Badoye’ ul-bidoya” devoni dagi she’rlarning badiyligini ta’minlashga xizmat qilgan. Tabiatga munosabat har bir ijodkorda turlichay kechadi. Alisher Navoiy

qahramonlari bevosita tabiat bilan hamohang hayot kechiradilar. Ulug' shoirning tabiatga munosabatida hamisha ma'lum bir g'oyaviy-badiiy maqsad yotadi. Aniqrog'i, tabiatga murojaat qilinar ekan, uning zimmasiga aniq g'oyaviy-badiiy vazifa yuklanadi. Bu vazifalar asar g'oyasini, shoir fikrini, estetik maqsadini ochib berishga xizmat qiladi. Ba'zida ulug' adib qahramonning ruhiy holatini uni o'rab turgan manzara bilan ifodalaydi va navbatdagi kechinmalarga yo'l ochadi.

Alisher Navoiy tabiat tasviriga murojaat qilar ekan, asar g'oyasini ochishni, hamda voqealarni hayotiy rivojlantirishni ko'zlaydi va bu usullarning barchasi g'oyaviy-badiiy, estetik maqsadlar bilan bog'lanadi. Shu bilan birga tabiat lavhasi qahramonning ruhiy holatini ham ochib beradi. Ijodkor qo'llagan tabiat lavhasi bir o'rinda voqealarni rivojlantirsa, boshqa bir o'rinda qahramonning ruhiyatini ko'zguda ko'rsatadi. Alisher Navoiy talqinida tabiat lavhalari aksar holatlarda qahramonning kayfiyati va holatiga uyg'un keladi. Bundan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shuki, qahramonlarning tabiat bilan yuzma-yuz kelishi zaruriy hodisa bo'lib, uni o'z o'rni va me'yorida qo'llay olish ijodkorning mahoratidan nishon beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Sh.M. Mirziyoyev. "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884 son Qaror.
- 2.Alisher Navoiy, mukammal asarlar to'plami 20 tomlik 1-tom. Badoye' ul-bidoya. Toshkent: "Fan", 1987. 724-bet.
- 3.Alisher Navoiy, mukammal asarlar to'plami 20 tomlik 3-tom. Xazoyin ul-maoni. G'aroyib-us-sig'ar. Toshkent; "Fan" 1988. 616-bet.
- 4.Alisher Navoiy, mukammal asarlar to'plami 20 tomlik 4-tom. Navodir ush-shabob. Toshkent:"Fan". 1989. 580-bet.
5. <http://www.pedagog.uz>
- 6.<http://www.lex.uz>